

“Yangi O‘zbekiston” universiteti xodimlarining ODOB-AXLOQ KODEKSI

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu kodeks bilan tartibga solinadigan munosabatlar

Ushbu Kodeks O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun va qonunosti hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “Yangi O‘zbekiston” universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet)ning markaziy apparat xodimlari, akademik xodimlar va boshqa xodimlar (keyingi o‘rinlarda – Xodimlar)ning odob-axloqining tamoyillari, normalari, ta’lim jarayoni va xulq-atvorining asosiy qoidalari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

2-modda. Odob-axloq kodeksining maqsad va vazifalari

Quyidagilar odob-axloq kodeksining maqsadlari hisoblanadi:

Xodimlar madaniyatini milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish;

Universitetga oid odob-axloqning tushunchasini shakllantirish va takomillashtirib borish;

Xodimlarni Universitet va uning qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

Universitetda kiyinish, tashqi ko‘rinish va xulq-atvorga bo‘lgan talablarni o‘rnatishdan iboratdir.

Quyidagilar odob-axloq kodeksining vazifalari hisoblanadi:

Xodimlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

Universitetda zo‘ravonlik, shafqatsizlik va hayosizlik kabi nomaqbul xatti-harakatlar bilan shug‘ullanish va (yoki) targ‘ibot-tashviqot qilinishini oldini olish;

turli salbiy illatlar va milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan g‘oya va qarashlar, ekstremizm, separatizm, fundamentalizm va “ommaviy madaniyat”ning ta’sir hamda xurujlarni targ‘ibot-tashviqot qilinishiga oid harakatlarni oldini olish;

mazkur nomaqbul xatti-harakatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish;

Xodimlarda yuksak huquqiy ongni shakllantirish orqali O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalash;

Xodimlarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini doimo hurmat qilish va himoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish va yuksaltirish;

Xodimlarda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

Universitetda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va rivojlantirish;

Xodimlarda tashqi ko'rinishga oid madaniyatni shakllantirish uchun sharoitlar yaratish;

Universitetning davlat va jamiyat hayotidagi hamda ta'lim tizimidagi nufuzi, obro'-e'tiborini asrab-avaylash va yanada oshirish.

3-modda. Kodeksning amal qilish doirasi

Ushbu Kodeks Universitetning barcha xodimlariga nisbatan tatbiq etiladi.

2-bob. Kodeksning prinsiplari

4-modda. Xodimlar xulq-atvorining asosiy prinsiplari

Mazkur Kodeks qonuniylik, tenglik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik, adolat, halollik va xolislik, samaradorlik va tejamkorlik prinsiplariga asoslanadi.

5-modda. Qonuniylik prinsipi

Xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga so'zsiz rioya qiladilar hamda o'z ish majburiyatlarini ushbu Kodeks qoidalari, Universitet Ichki tartib-qoidalari hamda ta'limga oid boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq bajaradilar.

6-modda. Universitetda o'zaro munosabatlarda tenglik

Bir shaxsning huquqi boshqa shaxsning huquqini poymol qilmasligi lozim, so'z erkinligi, unga birovga tuhmat qilish, haqoratlash, o'zaro munosabatlarda umume'tirof etilgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi behayo so'zlardan foydalanishga yo'l qo'ymaydi, vijdon erkinligi Universitetda diniy marosimlarni o'tkazish huquqini bermaydi, kiyim-kechaklarni kiyish erkinligi esa tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazish hollarini keltirib chiqarishga yo'l qo'ymaydi.

7-modda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi prinsipi

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Universitetning oliy qadriyati bo'lib hisoblanadi. Xodimlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'ymaydilar va bunday buzilishlar ro'y bergan hollarda ularni tiklashga ko'maklashadilar.

8-modda. Vatanparvarlik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik prinsipi

Xodimlar o'z ish va xizmat faoliyatlarini ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, vatanga sadoqat, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik asosida jamiyatning Universitetga bo'lgan talabi va ishonchini ifodalagan holda amalga oshiradilar. Xodimlar o'z ish va xizmat burchlarini o'zaro xayrixohlik, o'z manfaatlari va mafkuraviy qarashlaridan qat'i nazar lozim darajada bajaradilar.

9-modda. Adolat, halollik va xolislik prinsipi

Xodimlar o'z ish faoliyatlarini amalga oshirishda adolatli, halol va xolis bo'lishlari hamda Universitetga, unga tegishli bo'lgan saytlar va ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu prinsip talablari asosida munosabatda bo'lishlari shart.

10-modda. Samaradorlik va tejamkorlik prinsipi

Xodimlar o'z faoliyati samaradorligini innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va boshqa yo'llar bilan doimiy ravishda oshirib boradilar.

Xodimlar, o'z navbatida Universitetning mulkiga, o'zining va boshqa shaxslarning vaqtiga mas'uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashadilar.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish

11-modda. Korrupsiyaning har qanday shakl va ko'rinishini qabul qilmaslik

Xodimlar korrupsiyaning har qanday shakli va ko'rinishini qabul qilmaydilar va uning biror-bir tarzda namoyon bo'lishiga qarshi hamjihatlikda qonuniy choralarni ko'radilar.

Xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashishlari va uning profilaktikasiga faol ko'maklashishlari, shuningdek, Universitet korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va boshqa korrupsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlar talablarini so'zsiz bajarishlari, o'z faoliyatlarini oshkora va adolatli amalga oshirishlari, yuqori axloqiy qadriyatlar va prinsiplarga sodiq qolgan holda qonun ustuvorligiga qat'iy rioya etishlari shart.

4-bob. Xodimlar yurish-turish va rasmiy muloqotiga oid talablar

12-modda. Universitetda kiyinish va tashqi ko'rinishga oid qoidalar

Xodimlar o'z ishiga mos bo'lgan zamonaviy kiyimda bo'lishlari lozim.

Xodim bo'lgan xotin-qizlar tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda, shuningdek, quloqchinlar, quloq va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga turli zirak yoki metall buyumlar bilan, tanasining ko'rinib turadigan qismida pirsing yoki tatuirovkada Universitetga kelishlari mumkin emas.

Xodim bo'lgan ayol-qizlar Universitetga och rangli va yorqin rangda bo'lmagan bluzkalarda, tizzani yopib turadigan yubka, klassik turdagi shimlar yoki odmi kostyum va to'q rangdagi poyabzalda kelishlari lozim.

Xodim bo'lgan erkaklar oq, havorang, och jigar rang yoki och kulrang ko'ylakda, klassik uslubdagi shim yoki odmi kostyum, va to'q rangdagi poyabzalda kelishlari lozim.

Xodimlarga professionallikka va tanlagan kasbiga xos tarzda kiyinish targ'ib qilinadi.

Xodimlarning auditoriya va xizmat xonalarida ustki kiyim (plash, palto, kurtka hamda bosh kiyim kabilar)da yurishlari taqiqlanadi.

Xodimlarning tashqi qiyofasi va kiyimlari ozoda, pokiza, sochi me'yor darajasida tartibga solingan, soqoli olingan bo'lishi lozim.

Xodimlarning Universitetga kelishi ruxsat etilgan formasiga turli din va konfessiyalar hamda submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi elementlarni (kipa, kashaya, xoch, hijob va boshqalar) qo'shishga yo'l qo'yilmaydi.

Dam olish kunlari (shanba va yakshanba) erkin ust-boshda (tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan, turli din va konfessiyalar hamda submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi kiyimda kelish bundan mustasno) kelishga ruxsat etiladi (rasmiy tadbirlarda ishtirok etishga jalb qilinganlar belgilangan kiyinish tartibiga amal qilgan holda keladi).

13-modda. Majlis va yig'inlarda ishtirok etish

Xodimlar turli tadbirlar (majlislar, tantanali yig'ilishlar, uchrashuvlar, bayramlar)dagi ishtiroki jarayonida so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishlari, tadbir davomida tinchlik va osoyishtalikni saqlashlari shart bo'lib, raislik qiluvchi va moderatorning ruxsatisiz luqma tashlash va so'zga chiqish mumkin emas. Zarurat tug'ilganda nutqlar o'rtasida majlislar zalidan chiqib-kirish mumkin.

14-modda. Binolarda yurish-turish qoidalariga amal qilish

Binolarga kirish va chiqish joylarida, shuningdek, yo'laklarda talabalar xodimlarni, erkaklar ayollarni, yoshlar esa kattalarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

Binoga kirayotgan Xodimlar binolarga kirib-chiqishni nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (ruxsatnoma, pasport va h.k.) ochiq holda ko'rsatishlari yoki maxsus berilgan ID karta va feys-kontrol orqali turniketlardan o'tishlari shart.

Xodimlar Universitet hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari, shuningdek, yo'lak va xollarda mobil aloqa vositalari orqali baland ovozda gaplashmasliklari kerak. Bir-birlariga duch kelganda salomlashishlari, bunda: talabalar xodimlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi. Bundan qo'l berib so'rashish istisno bo'lib, yoshi katta shaxslar birinchi bo'lib qo'l uzatganidan keyingina unga javoban qo'l uzatish mumkin.

15-modda. Xodimlarning rasmiy muloqot me'yorlari

Xodimlar tashkilot va muassasalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar bilan o'zaro munosabatga kirishganda quyidagi rasmiy muloqot me'yor va qoidalariga amal qilishlari kerak:

o'z harakatlarini Universitet manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish, uning imijini saqlash va oshirish, Universitet, uning xodimlari, talabalari, magistrarlari, doktorantlari nomi va manfaatlariga ziyon yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmaslik, shuningdek, ular bilan muloqot qilganda hamda ijtimoiy tarmoq

va messengerlardagi yozishmalarida o'zlarining namunali xulq-atvori bilan Universitet haqida yuksak ijobiy taassurot uyg'otish;

Universitet, uning talabalari, magistrarlari, doktorantlari va Xodimlar haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki noto'g'ri talqin qilingan, noto'g'ri talqin qilish uchun imkon beradigan ma'lumotlarni tarqatmaslik, bunday ma'lumotlar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, jamoat oldida va ijtimoiy tarmoqlarda bu mavzuda chiqishlar qilmaslik;

talabalar, magistrarlari, doktorantlar va Xodimlarning rozilgisiz ularning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

talabalar, magistrarlari, doktorantlar va Xodimlarlar haqida ularning kasbiy va o'quv faoliyatiga oid bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlashtirmaslik;

so'ralgan axborotni yetarlilik (haddan tashqari qisqa, shu bilan birga o'ta keragidan ortiq) va ishonchlilik (qayta tekshirishni talab qilmaydigan) talablariga muvofiq holda taqdim etish;

Xodimlarning ta'lim jarayonidagi faoliyatini asossiz tanqid qilmaslik, jamoat oldida chiqishlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va turli xil ijtimoiy tarmoqlarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va Universitet faoliyati, uning xodimlari harakatlarini haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, asossiz va aniq dalillarga asoslanmagan holda muhokama qilmaslik va ular haqida baho berib, fikr-mulohazalar bildirmaslik.

O'zaro "Siz" deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim.

16-modda. Ish vaqtiga rioya qilish

Xodimlar dars mashg'ulotlari va xizmat vazifalariga o'z vaqtida kelishlari, ish intizomiga qat'iy rioya qilishlari shart.

17-modda. Universitetda g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etishga yo'l qo'yilmasligi

Xodimlarning xizmat faoliyatini davom ettirishiga to'sqinlik qiladigan quyidagi g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etishi qat'iyan taqiqlanadi:

har qanday huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish, jumladan tuhmat qilish, haqoratlash;

giyohvand moddalar, psixotrop, sintetik vositalar va ularning analoglarini iste'mol qilish va tarqatish;

tinchlik yoki osoyishtalikka qarshi tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash;

Universitetga moddiy va uning ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir etuvchi ma'naviy zarar yetkazish;

talabalardan reyting balini qo'yish uchun har qanday shakldagi rag'batlantirishni so'rash yoki talab qilish, shuningdek talabalarga reyting balini qo'yishda Xodimlarga har qanday shakldagi rag'batlantirishni taklif etish yoki reyting balini olishda Xodimlar bilan kelishish uchun o'rta odam qo'yish;

talaba, magistr va doktorant va Xodimlarga jismoniy, ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazish;

shaxsiy manfaat va maqsadlarni hal qilish maqsadida Xodimlar uyiga borish (shu jumladan, tahdid qilish);

Xodim, talaba, magistr va doktorant yoki boshqa shaxslarning mulkiga, moddiy qimmatliklariga egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun turli ko'rinishda egallab olish, basharti ushbu holat tegishli asoslar bilan o'z tasdig'ini topsa;

Universitet atrof-muhitini har qanday ko'rinishda ifloslantirish;

reyting balini qo'yishda talaba, magistr va doktorantlardan har qanday shakldagi rag'batlantirishni qabul qilish yoki reytinq balini qo'yishda talaba, magistr va doktorantlar bilan kelishish uchun o'rtaga odam qo'yish;

tupurish, ifloslantirish va saqichni biron-bir joyga qoldirib ketish;

Universitet binolari va hovlisida tamaki yoxud boshqa turdagi mahsulotlarni chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish (Universitet rektori tomonidan tadbirlar doirasida istisno holatlari belgilanishi mumkin) hamda mast holda bo'lish, tashqi ko'rinishga va ushbu Kodeksda belgilangan qoidalariga zid ravishda soch-soqoli o'sgan, to'zg'igan, sochlarini noodatij bir yoki bir necha ranglarga bo'yalgan va kiyinish talablariga rioya qilmagan holda kelish;

o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida olingan ma'lumotlardan maqsadga muvofiq bo'lmagan tarzda foydalanmaslik, shuningdek ularni Universitet rahbariyati ruxsatisiz tarqatmaslik;

hamkasblar va boshqa xodimlarning kasbiy harakatlarini tanqid qilmaslik, shuningdek jamoat oldida chiqishlar, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida Universitet faoliyati, uning rahbariyati haqida fikr-mulohazalar bildirish, baho berishga yo'l qo'ymaslik;

Universitetga tegishli kompyuterlarda Universitetga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy ma'lumotlar, behayo surat va filmlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi, ekstremistik, separatistik va fundamentalistik kayfiyatdagi har qanday materiallarni tayyorlash, ko'rish, saqlash, tarqatish va ularga da'vat etish;

o'quv mashg'ulotlariga hamda talaba, magistr, doktorant va Xodimlarning osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti-harakatlar sodir etish (radiouzatgich, televizor, multimedia va ovoz chiqaruvchi moslamalardan maqsadsiz foydalanish);

ijtimoiy foydalaniladigan joylar (kiyinish va yuvinish xonalari, hojatxonalar)ni ozoda, pok saqlash;

soxta ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish;

Xodimlar tomonidan Universitet hujjatlariga qasddan o'zgartirish kiritish yoki ularni yo'q qilish (bo'yash, o'chirish, qo'shimcha yozuvlar kiritish yoki zarar yetkazish);

umumbashariy va milliy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki Universitet, Xodimlar nufuziga putur yetkazadigan materiallarni Internet tarmog'i va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoki ulardan turli nomuvofiq maqsadlarda foydalanish.

O'quv jarayoniga oid qoida va talablar buzilishi bilan bog'liq holatlar akademik halollikka oid ichki me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Xodimlar tomonidan Universitetning ishchanlik obro'si, qadr-qimmatini va nufuzini tushiradigan, ta'lim jarayonining ma'naviy buzilishiga olib keladigan agressiya, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, zo'rlash va vahshiylilik, vandalizm, millatlararo nizo qo'zg'atadigan, taqiqlangan diniy yo'nalishdagi, terrorizm, ekstremizm, va fundamentalizm, shuningdek, behayo va ishqiy sahnalarni namoyon qiladigan fotosuratlar, video va audioyozuvlardan foydalanish va ularning tarqatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek Universitet faoliyati, Xodimlari hamda talabalari sha'ni va qadr qimmatini hamda ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir qiluvchi haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, asossiz va tekshirilgan dalillarga asoslanmagan turli xil ko'rinishdagi ma'lumot, fikr, mulohaza va munosabatlarni internet, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, boshqa ommaviy axborot manbalarida, tarqatuvchilarda, tashuvchilarda paydo bo'lishi (oshkor etilishi) hamda shunday ma'lumotlarga ijobiy munosabat bildirish ("layk" bosish, repost qilish va tarqatish) mazkur talaba, magistr va doktorantning o'qishiga, xodimning esa oliy ta'lim muassasasida mehnat faoliyatini yuritishiga to'sqinlik qiladigan g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakat hisoblanadi.

18-modda. Rahbariyat va xodimlar munosabati

Rahbariyat o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o'rnatilgan bo'lishi, Universitetda ma'naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko'maklashishi lozim, bo'ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Rahbar kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish holatlariga yo'l qo'ymasligi kerak. U guruhbozlik, mahalliychilik, o'ziga yaqin olish holatlarining, shuningdek o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini olishi lozim.

Rahbar:

qo'pollik qilmasligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatish holatlariga yo'l qo'ymasligi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi;

korupsiyaning oldini olish choralarini ko'rishi;

Xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog‘i, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanishlari, shuningdek hordiq chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha imtiyozlarni yaratib berishi;

Xodimlarni samarali boshqarishi, o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishi shart. Rahbar o‘ziga bo‘ysunuvchi odob-axloq tamoyillari va qoidalarini buzayotgan xodimlarning xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo‘l qo‘yilmasligi choralarini ko‘rmaganligi uchun javob beradi.

5-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi

19-modda. Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilmasligi

Xodimlar o‘z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo‘l qo‘ymasliklari kerak. Manfaatlar to‘qnashuvi Xodimlarning shaxsiy manfaatlari ularning o‘z xizmat vazifalarini xolisona va beg‘araz bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlarda paydo bo‘ladi. Xodimlarning shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o‘zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo‘ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko‘rish yoki afzalliklarga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda Xodimlar o‘z rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shart.

6-bob. Xodimlarning talabalar bilan va o‘zaro munosabatlari

20-modda. Xodimlarning talabalar bilan va o‘zaro munosabatlari

Xodimlarning talabalar bilan va o‘zaro munosabatlari milliy an’analar, yagona jamoa, o‘zaro hurmat va e’tibor, do‘stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga asoslanishi lozim.

Xodimlarning talabalar bilan va o‘zaro munosabatlarida inson qadriyatiga hurmatsizlik, shaxsiyatni kamsitish, o‘zganing intellektual mulkini o‘zlashtirib olish, qo‘pollik, behayo so‘zlar ishlatish, mushtlashish qat’iyan man etiladi.

Xodimlar tomonidan talabalarga nisbatan yuqori talabchanlik ularning shaxsini hurmat qilish bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

21-modda. Xodim va talabalarning auditoriyadagi va tashqaridagi o‘zaro munosibatlari

Xodim auditoriyaga kirganida, barcha talabalar o‘rinlaridan turib hurmatlarini bildirgan holda kutib oladilar, so‘ngra Xodim salomlashib, o‘tirishga ruxsat bergach, o‘z joylarini egallaydilar. Xodim darsini tugatib, auditoriyadan chiqib ketayotganda ham talabalar o‘rinlaridan turib, kuzatib qo‘yadilar.

22-modda. Akademik ta'qib va tazyiqqa yo'l qo'yilmasligi

Universitet hayotida xodim tomonidan talabalarni ularning roziligisiz muayyan ishlarga jalb etganlik, haq to'lamasdan ularning mehnat kuchidan foydalanish (Universitet va unga biriktirilgan boshqa hududda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan xavfsizlik standartlariga qat'iy rioya qilingan holda ixtiyoriy shanbalik va boshqa turdagi tadbirlar tashkil etilgan hollar bundan mustasno) maqsadida ularga murojaat etilganida, talabalar tomonidan bunday so'rovga rad javobining berilishi Xodim tomonidan kelgusida ularga dars mashg'ulotida past baho qo'yish yoki boshqa turdagi tazyiq va ta'qib ("academic harassment") qilish bilan bog'liq munosabat ko'rsatilishiga imkon bermaydi va bunday ta'qib qattiq qoralanadi.

23-modda. Pedagog xodimni almashtirish

Asoslangan jiddiy sabablar (qo'pollik, tamagirlik, pedagog xodimning aybi bilan mashg'ulotlar o'tkazilishidagi muntazam uzilish hollarini isbotlovchi dalillar va b.) hamda guruhning yakdil fikri mavjud bo'lgan holatlarda, talabalar pedagog xodimni almashtirish haqida iltimos bilan O'quv bo'limiga murojaat qilishlari mumkin.

24-modda. Uyali aloqa vositalaridan foydalanish

Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun qat'iy taqiqlanadi. Uyali aloqa vositalaridan foydalanishga zarur va uzrli holatlarda ruxsat etilishi mumkin.

25-modda. Dars mashg'uloti va xizmat faoliyatida ishtirok etish

Xodimlarning xizmat faoliyatiga kech qolib kelishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Pedagog xodim dars mashg'ulotlariga o'zining nojo'ya harakatlari bilan xalaqit berayotgan talabani yuzaga kelgan vaziyat haqida maktab dekanini (u o'z o'rnida bo'lmaganda dekan o'rinbosari yoki tyutorni) xabardor qilgan holda darsdan chetlatishi mumkin.

26-modda. Dars mashg'ulotidan tashqari vaqtda muloqot qilish

Pedagog xodim talaba bilan dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda muloqot qilish zarurati bo'lsa, u holda muloqot maslahat soatlari, mustaqil ish yoki o'zaro kelishuv bo'yicha belgilangan vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

Talaba oldindan kelishilmagan holda pedagog xodimlarning huzuriga kelsa, umumiy yoki o'zaro kelishilgan maslahat soatiga kech qolib kelgan yoki kelmagan bo'lsa, pedagog xodim qisqa vaqt suhbatlashishi mumkin.

27-modda. Subordinatsiya

Rahbar xodimlarga Xodimlar tomonidan biron-bir masala yuzasidan vujudga kelgan holatlar bo'yicha murojaat qilinishi muayyan tartib (subordinatsiya tamoyili), ya'ni munosabat bildirishdagi rahbariyat bo'g'inlariga bosqichma-bosqich chiqish asosida tashkil etiladi. Universitet rektori va rektor maslahatchisiga Xodimlarning to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish holatlari bundan mustasno.

Universitet rektori va rektor maslahatchisi bo'g'inidan qat'i nazar barcha xodimlarga o'z vakolati doirasida vazifa yuklashi va tegishli tartibda hisobot olishga haqli hisoblanadi.

28-modda. Tashabbus va faollik

Xodimlarning Universitetda ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion g'oyalardan samarali foydalanish, turli xil manfaatli tadbirlar uyushtirish bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

7-bob. Xodimlarning odob-axloqqa oid majburiyatlari

29-modda. Odob-axloqqa oid majburiyatlar

Universitetga ishga kirayotgan shaxslar mazkur Kodeks bilan yozma ravishda tanishtiriladilar.

Bunda, Xodimlardan maxsus jurnalda mazkur Kodeks bilan to'liq tanishganligini tasdiqlovchi imzo chekishlari talab etiladi.

Xodimlar:

qonun hujjatlari va mazkur Kodeks talablariga rioya etishga;

doimo yuksaklikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarni chuqur anglashga;

ish vaqtida Universitet hududida behuda yurmaslikka;

talaba, magistr, doktorant hamda Xodimlar bilan mehnat faoliyati va ta'lim olish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday munosabatga kirishmaslikka;

tadbirlar davomida hissiyotlarni baland ovozda namoyon qilishdan o'zini tiyishlikka, boshqa tomoshabinlarga nisbatan odobsiz so'zlarni bildirmaslikka, sahnadagilarga nisbatan hurmatda bo'lishga, hushtak chalmaslik, baqirmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslikka, uxlamaslik, o'rindiqlarga yotib olmaslik, bir-biri bilan baland ovozda gaplashmaslik, uyali telefonda so'zlashmaslik, yon-atrofdagilarga xalaqit bermaslikka;

odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni hurmat qilishga;

o'z ustilarida doimiy ravishda ishlash va qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini muntazam ravishda o'rganib borishga;

o'z vazifalarini vijdonan, professional darajada amalga oshirishga;

Universitet obro'-e'tibori va nufuziga dog' tushiradigan har qanday harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyishga;

Universitet to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va ishchanlik obro'siga ziyon yetkazish maqsadida foydalanmaslikka;

Universitet mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga (ko'char va ko'chmas mulk, o'simlik va hayvonot dunyosiga va b.);

elektr energiyasi va suvni tejamkorona ishlatishga;

biron-bir noxush voqea yoki hodisa ro'y bersa, u haqda zudlik bilan Universitet rahbariyatiga xabar berishga;

belgilangan cheklovlar va taqiqlarga rioya qilish, o'z vazifalarini og'ishmay bajarishga, talaba, magistr, doktorant va Xodimlarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilmaslikka, hech bir shaxs haqida jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va lavozimi haqida hamda boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar noto'g'ri fikr yuritmaslikka va uni kamsitmaslikka;

Universitet va undan tashqari hududda barcha turdagi diniy tashviqot ishlarini (jumladan missionerlik faoliyatini) olib bormaslikka;

talaba, magistr, doktorant va Xodimlar, shuningdek, boshqa shaxslar haqida turli ig'vo, fitna, g'iybat va bo'htonlar uyushtirmaslikka va tarqatmaslikka;

Universitet ishchanlik obro'si yoki nufuziga putur yetkazadigan nizoli vaziyatlarga yo'l qo'ymaslikka;

kasbiy faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan, ularning oshkor etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beriladigan axborotning saqlanishini va maxfiyligini ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rishga;

Universitet talabalari va Universitetga o'qishga kiruvchilar bilan har qanday noqonuniy moliya-iqtisodiy munosabatga kirishmaslikka;

Xodim, talaba, magistr va doktorantning mehnat va o'quv jarayonidagi sa'y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazmaslikka;

xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlar sodir etmaslikka, shilqimlik qilmaslikka, o'zaro munosabatlarda umume'tirof etilgan axloq qoidalarini mensimaslikda ifodalanuvchi behayo so'zlardan foydalanmaslikka;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning, shuningdek, Universitet rahbariyatining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida va sifatli bajarishga;

shaxsiy foydasi hamda o'zgalar manfaatini ko'zlab o'z mavqeini suiiste'mol qilmaslikka;

haqiqatni gapirishga, rahbarlar va boshqa xodimlarni chalg'itmaslikka;

mutasaddi xodimlarning ruxsatisiz Universitet hududida va undan tashqarida turli reklama vositalarini o'rnatmaslikka;

sog'lom turmush tarzini yuritish va atrofdagilarning sog'lig'ini saqlashga g'amxo'rlik qilish, estetik va ekologik madaniyatning oshishiga ko'maklashishga;

tanqidiy mulohazalarni bildirishga va ob'ektiv qaror qabul qilishga, o'z xato va kamchiliklarini anglash va bartaraf etishga;

moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan ataylab ko'z-ko'z qilmaslikka;

Axborot-resurs markazi xodimlari bilan xushmuomala bo'lishga, kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga, u yerda uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish yoki ovozsiz rejimga qo'yishga, baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslikka, oziq-ovqat iste'mol qilmaslik, qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslikka, kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilishga;

sport majmuasiga sport kiyimi va poyabzalida kirishga;

sport inventarlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga;

mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirishga;

sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilishga;

kimyo, fizika va kompyuter laboratoriyasi xonalarini toza, ozoda saqlashga, ulardan to'g'ri foydalanishga;

tinchlik saqlashga va koridorlar, zinalarda yugurmaslikka, bir-birini itarmaslikka va har qanday muammoni hal etish uchun jismoniy kuch ishlatmaslikka, har qanday shaxslarga nisbatan axloqsiz iboralarni qo'llamaslikka, shovqin qilmaslikka;

Universitetga faqat maosh olish uchun emas, balki Universitet ravnaqiga hissa qo'shish uchun mehnat qilishga;

auditoriyada uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yishga;

yozma ishlar davomida va reyting nazoratiga doir boshqa tartib-qoidalarini bajarish vaqtida talabalarga belgilangan me'yorlardan tashqari yordam ko'rsatmaslikka;

jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, partalar va stullarga yozmaslikka;

shaxsiy kompyuterlar va boshqa kommunikasiya vositalari bilan faqat ishga doir narsalar uchun foydalanishga;

umumiy ovqatlanish joylarida taomlarga buyurtma berishda va olishda navbat tartibiga va belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilishga;

tirbandlik holatida boshqa o'qituvchilar, ayollar va yoshi kattalarga hurmat ko'rsatishga;

ovqatlanish vaqtida shovqin qilmaslikka;

etiket qoidalariga rioya etish va boshqa fuqarolarga qo'pol muomalada bo'lmaslikka;

Xodim, talaba, magistr va doktorant va boshqa fuqarolar bilan har qanday nizoli munosabatlarga kirishishdan tiyilishga;

Xodim, talaba, magistr va doktorant va boshqa fuqarolarga nisbatan haqoratli so'zlar ishlatish va bo'htonlardan tiyilishga;

fuqarolarga moddiy va jismoniy zarar yetkazmaslikka, mushtlashuv va janjallashish holatlariga kirishmaslikka;

rasmiy sport turlariga mansub bo'lmagan mashg'ulotlar (ko'cha janglari, poygalar va h.k) bilan shug'ullanmaslikka;

nutq madaniyatini doimiy takomillashtirishga;

laboratoriya xonalaridagi barcha jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga;

laboratoriya mashg'ulotlari vaqtida hamda mashg'ulotlardan keyin ham laboratoriya jihozlari, elementlarni belgilangan joylarga qayta topshirishga;

laboratoriya amaliyoti vaqtida texnika xavfsizligiga qat'iy amal qilishga;

Universitet auditoriyalari, binolari va binolarga tutashgan hududda tozalikni saqlashga;

hududni ifloslantirmaslik, chiqindilarni joylarda qo'yilgan maxsus qutilarga tashlashga;

shaxsiy avtomobilni taqiqlangan joyda qoldirmaslik, yo'l harakati qoidalarini buzmaslik va mensimaslikka (beparvo bo'lish), shuningdek, transport vositalaridan foydalanishda xavf-xatar yaratmaslikka;

ishdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka;

Universitet rahbariyati va mas'ul xodimlarining mazkur qoidalarga bo'ysunish bilan bog'liq talabini muhokama qilmaslik va so'zsiz bo'ysunishga majbur.

30-modda. Odob-axloqqa oid qo'shimcha talablar

Xodimlar:

Xodimlarning o'z-o'zini boshqarish tizimini faol qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish va jamoaviy madaniyatni o'stirishga;

ta'tildan oldin yoki mehnat shartnomasi tugatilganda o'z xizmat joyini talabga javob beradigan holatda qoldirish, o'z zimmasidagi texnika vositalari va boshqa materiallarni, o'ziga topshirilgan, lekin hali yakunlanmagan vazifalarni boshqa shaxsga topshirishga;

telefon orqali muloqot qilishda muomala madaniyati va axborot taqdim etish qoidasiga rioya qilishga (jumladan, suhbatni eng avval rasmiy tarzda salomlashishdan boshlab so'ng o'z xizmat muassasasi, lavozimi hamda familiyasi, ismi, sharifini aytib, maqsadga o'tish lozim, taqdim etilayotgan axborot maksimal qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi kerak, so'ralayotgan ma'lumot suhbat jarayonida izlanishi tufayli telefon tarmog'ini band qilishga yo'l qo'yilmaydi, zarurat bo'lsa, qayta qo'ng'iroqni amalga oshirish mumkin);

talabalarni asossiz o'quv mashg'ulotlaridan chiqarib yubormaslikka, shuningdek talabaga Universitet talabalar safidan chetlashtirish (kursda qoldirish) yoki talabaning majburan o'qishni tashlashi uchun undash bilan qo'rqitmaslikka, uning talabalar safidan chetlashtirilishiga (kursda qoldirilishiga) olib kelmaslikka;

akademik guruhda (kursda) talabalar xulqining umumiy madaniy holati haqida akademik boshqaruv bo'limiga kerak bo'lgan hollarda ta'sir choralari ko'rish lozimligi yuzasidan yozma ma'lumot taqdim etishga;

boshqa Xodim yoki talabalar bilan boshqa talabaning bahosini muhokama qilmaslikka;

yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir tartib-qoidani bajarish vaqtida o'zgalarga yordam ko'rsatmaslikka;

Universitet talabalari, xodimlari va o'qituvchilariga qo'pollik qilmaslikka, ular bilan tortishmaslikka, agarda ular nohaq bo'lsa tegishli shaxslarga xabar berishga, ularning shaxsiy hayotiga oid noo'rin savollar bilan murojaat qilmaslikka, ularga nisbatan adovat saqlamaslikka;

o'quv semestri mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududini Universitet rahbariyatiga xabar bermagan holda tark etmaslikka;

xodim, talaba, magistr yoki doktorant bilan nizoli vaziyat yuzaga kelganda o'z hissiyotlarini jilovlashga va mazkur vaziyatni ko'rib chiqish bo'yicha tegishli bo'linma va xodimlar (murabbiy (tyutor), dekan, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Talabalar Kengashi)ga murojaat qilishga;

o'quv jarayonida mas'uliyatli, e'tiborli bo'lishga;

talabaga nisbatan adovatga bormaslikka;

jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, stol va stullarga yozmaslikka;

qog'oz, saqich va boshqa keraksiz narsalarni auditoriyada qoldirib ketmaslikka;

umumiy ovqatlanish joylarida taomlarga buyurtma berish va olishda navbat tartibiga hamda belgilangan qoidalarga rioya qilishga.

8-bob. Rag'batlantirish va chora ko'rish tartibi

31-modd. Xodimlarni rag'batlantirish

O'quv yili davomida mazkur Kodeksga to'la rioya qilgan, Universitetda yuksak ma'naviy-axloqiy muhitning yanada qaror topishi va mustahkamlanishiga xizmat qilgan Xodimlar belgilangan tartibga muvofiq moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirilishi mumkin.

Xodimlar tomonidan mazkur Kodeksga rioya etilishi attestasiyalar o'tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

32-modda. Kodeks qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

Xodimlar mazkur Kodeksni buzganida, ularga nisbatan ushbu Kodeks, Universitet Ichki mehnat tartibi-qoidalarini (Mehnat va o'qish intizomini buzganlik uchun javobgarlik) va boshqa qonunchilik hujjatlarida qayd etilgan choralar qo'llaniladi.

Ushbu qoidalar va Universitetning ichki-tartib qoidalarini, lokal normativ va me'yoriy hujjatlari talabalarini buzganligi uchun – **Xodimlarga nisbatan:**

hayfsan;

o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima;

takroriy intizomiy jazo qo'llanilganda xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima;

mehnat shartnomasini bekor qilish ta'sir chorasi qo'llaniladi.

Xodimlar bilan mehnat shartnomasini ish beruvchi tashabbusi bilan bekor qilinishiga olib keladigan Odob-axloq kodeksining bir marta qo'pol ravishda buzilishi quyidagilar hisoblanadi:

Xodimlar tomonidan Xodimlar va talabalarni haqoratli so'kish (yozma (ijtimoiy tarmoqlarda ham) va og'zaki tazrda) orqali kamsitilishi;

ijro intizomini buzish (O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari, Farmonlari, Farmoyishlari va topshiriqlarida, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari va farmoyishlarida, ish beruvchining qonuniy topshiriqlarida, shuningdek, rahbariyat yig'ilishlari qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishni o'z vaqtida va to'liq hajmda ta'minlamaganlik);

Universitet tomonidan ishonib topshirilgan (xabar qilingan) xizmat va boshqa sirlarni ish beruvchining rozilgisiz belgilanmagan tartibda oshkor etish;

ichki mehnat tartib-qoidalarini buzish;

talaba, magistr, doktorant hamda Xodimlar bilan mehnat faoliyati va ta'lim olish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday munosabatga kirishish;

ishga uzrli sabablarsiz kelmaslik (ishda uzrsiz sabablar bilan ish kuni mobaynida uzluksiz yoki ishda bo'lmagan vaqtni jamlab hisoblaganda 3 (uch) soatdan ko'proq bo'lmaganlik, butun ish kuni davomida uzrli sababsiz ishga kelmaslik ishni sababsiz qoldirish hisoblanadi, ish kuni davomida ishda sababsiz uch soatdan ortiq bo'lmaslik ham ishni sababsiz qoldirish hisoblanadi), pedagog xodimlar uchun dars jadvaliga ko'ra bir ish kuni mobaynida dars jadvalida belgilangan dars mashg'ulotlarini o'z vaqtida boshlamaslik yoki ishtirok etmaslik;

guvohlarning ko'rsatmalari yoki tibbiy xulosa bilan tasdiqlangan holda ishxonaga ish vaqtida, ishdan tashqari vaqtda alkogolli ichimliklar, giyohvandlik yoki toksik moddalar ta'siridan mastlik holatida kelish (bunda xodim shu holati sababli ishdan chetlatilgan yoki chetlatilmaganligi ahamiyatga ega emas, ish kuni normalanmagan xodim uchun belgilangan ish vaqtdan ortiq vaqt ham ish vaqti hisoblanadi);

Universitetning mol-mulkiga zarar yetkazish yoki uni turli xil usullar bilan talon-taroj qilish (shu jumladan, o'g'irlash);

Xodim tomonidan mansab (xizmat) vazifasini (vakolatini) suiiste'mol qilishi (lavozimi bo'yicha berilgan vakolatlardan xizmat manfaatlariga zid ravishda foydalanish) va g'ayriaxloqiy ko'rinishdagi, nomunosib bo'lgan ma'naviy xatti-harakatlarni sodir etishi;

davlat sirlari bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish;

Xodimlarning, shu jumladan, tartibbuzarning o'zini hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan tarzda texnika xavfsizligi, sanitariya qoidalarini qo'pol ravishda buzish;

Xodim tomonidan mehnat majburiyatlarini buzish oqibatida, O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining o'n baravar miqdorida moddiy zarar yetkazilishi;

bevosita pul yoki tovar-moddiy boyliklari bilan ishlaydigan xodim tomonidan aybli (qonunga xilof) xatti-harakatlar sodir etilishi, agar bu xatti-harakatlar ish beruvchining unga nisbatan ishonchini yo'qolishiga olib kelsa;

budjet mablag'larini tasarruf etilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning ana shu mablag'lardan belgilangan maqsadda foydalanmasligi;

mehnat burchlarini bajarish munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lgan, qonun bilan muhofaza qilinadigan (davlat, savdo xizmat, mehnat shartnomasida shart qilib qo'yilgan tijorat va boshqa) sirlarni oshkor qilish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'ziga murojaat etganligiga doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek, davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'ziga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbari, yuqori turuvchi tashkilot rahbari yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etmasligi;

o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda yoki jismoniy va yuridik shaxslardan ularning manfaatlarini ko'zlagan holda muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi evaziga bevosita o'zi yoki vositachi orqali pul, qimmatli

qog'ozlar, moddiy boyliklar, sovg'alar, ssudalar, mulkiy mohiyatga molik bo'lgan xizmatlar olishi;

bo'ysunuvidagi xodimning noqonuniy qarorlar qabul qilish yoki korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etishga majbur etishi;

xizmat ko'rsatilishi uchun fuqarolarga belgilangan to'lovlardan mansabidan foydalangan holda ozod bo'lish orqali mulkiy foyda olishi yoki boshqacha tarzda imtiyozlarga ega bo'lishga qaratilgan harakatga yo'l qo'yishi;

boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar, jumladan, mansab yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilish bilan bog'liq hamda korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risida tegishli tarkibiy bo'linma rahbariga xabar bermasligi;

ish joyida o'zganing mulkini (shu jumladan mayda) talon-taroj qilish, o'zlashtirish, qasddan nobud qilish yoki mulkka zarar yetkazish ish beruvchi (yoxud bunday huquqbuzarlik faktini tasdiqlovchi guvohlar tomonidan tuzilgan akti) tomonidan aniqlanganligi, shuningdek, kuchga kirgan sud hukmi bilan yoki ma'muriy jazo qo'llash vakolatiga ega bo'lgan organ qarori bilan aniqlangan holatlarda;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qoidalarini talablarini xodim buzgan holatida, agar bu nojo'ya xatti-harakat og'ir oqibatlariga olib kelsa yoki shunday holatga olib kelishi mumkin hollarda (baxtsiz hodisaga, ishlab chiqarishda xodimlarning o'limiga, avtohalokatga);

Xodim tomonidan O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida ko'rsatilgan jinoiy jazoga loyiq xatti-harakatlar unga amnistiya qo'llanilganligi yoki qo'llanilmaganligi, jazolanganligi yoki jazodan ozod qilinganligidan qat'i nazar, agar aybdorligi isbotlangan hollarda (ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan jinoyatlar bundan mustasno);

Universitet bo'linmalari rahbar xodimlari o'z xizmat burchlarini bajarmasligi, agar bu xodimlarning sog'lig'iga zarar yetkazishiga, tashkilotning mulkiga zarar yetkazishiga, mehnatni muhofaza qilish, moddiy boyliklarni hisobga olish qoidalarlarini buzilishiga, o'z xizmat vakolatidan chetga chiqish, ma'lumotlarni soxtalashtirish yoki xizmat vakolatlarini g'arazli maqsadlarda foydalanganlik hollarda;

o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan Universitet xodimlarining Odob-axloq qoidalarini qo'pol ravishda buzilsa va bu to'g'rida Odob-axloq komissiyaning tegishli xulosasi bo'lsa;

Xodim, talaba, magistr va doktorant va boshqa fuqarolar bilan Universitet binosida va undan tashqarida mushtlashish holati;

Xodimlar tomonidan qizlarga bo'lgan jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga qaratilgan nojo'ya harakatlar va muomala (yozma va og'zaki)da bo'lishi;

talaba, magistr, doktorant va Xodimlarning sha'ni va qadr-qimmatiga hamda Universitet ishchanlik obro'si yoki nufuziga putur yetkazadigan nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish va bunday ma'lumotlarni tarqatish (shuningdek ijtimoiy tarmoqlar orqali);

tarbiyaviy funksiyalarni bajarayotgan xodim tomonidan ushbu ishni davom ettirishga to'g'ri kelmaydigan axloqsiz huquqbuzarlik sodir etilishi.

Intizomiy jazo choralari nojo'ya xatti-harakat aniqlangandan keyin bir oy ichida, sodir etilgan kundan boshlab olti oy ichida xodimning kasal yoki ta'tilda bo'lgan vaqtini hisobga olmagan holda qo'llaniladi, shuningdek, kasal, ta'til yoki homiladorlik va tug'ish ta'tilida bo'lgan davrda mehnat shartnomasini bekor qilish ta'sir chorasi qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Intizomiy jazoga tortilgan xodim o'ziga qo'llanilgan jazo chorasining qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat bilan murojaat etishi mumkin.

Xodimga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma'lumot uning shaxsiy hujjatlar to'plamida saqlanadi.

33-modda. Kodeks va ichki tartib-qoidalarining o'zaro munosabati

Xodimlar mazkur Kodeks qoidalarini buzganida, ularga nisbatan ushbu Kodeks, Universitet Ichki mehnat tartib-qoidalari va boshqa qonunchilik hujjatlarida qayd etilgan choralar qo'llaniladi.

9-bob. Odob-axloq komissiyasi faoliyatini tashkil etish

34-modda. Odob-axloq komissiyasi

Mazkur Kodeks talablarining Xodimlar tomonidan buzilishiga oid masalalar, qoida tariqasida, Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Bunda, Xodimlar tomonidan sodir etilgan g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakatlar yuzasidan o'rganishlar olib borish maqsadida Universitet rektori buyrug'i asosida kamida 3 (uch) kishidan iborat maxsus ishchi guruhi tashkil etilishi mumkin.

Odob-axloq komissiyasi, qoida tariqasida, Universitet rektorining ko'rsatmasi bo'yicha, xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra hamda o'z tashabbusi bilan Universitet Xodimlaridan, shuningdek, Universitetga aloqa kanallari orqali kelib tushgan axborot asosida ham ushbu turdagi masalalarni ko'rib chiqishi mumkin.

Odob-axloq komissiyasi kamida 5 (besh) kishidan iborat tarkibda tuziladi. Odob-axloq komissiyasining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va uning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq boshqa masalalar Universitet rektori tomonidan tasdiqlangan Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

35-modda. Odob-axloq komissiyasi qarori

Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha intizomiy yoki boshqa tarzda qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida hamda tegishli intizomiy jazo qo'llanilishi yuzasidan xulosa chiqariladi hamda Odob-axloq komissiyasi yig'ilishining bayoni orqali rasmiylashtiriladi. Ayni vaqtda Universitet rektorining ko'rib chiqishi uchun qoidabuzar xodimni javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritiladi. Intizomiy jazo tayinlanishi Universitet rektori buyrug'i asosida amalga oshiriladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xususiyatini hisobga olgan holda Odob-axloq komissiyasi xodimga nisbatan Odob-axloq kodeksining buzilishiga yo'l qo'yimaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Xodimlar o'zlari yo'l qo'ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek, Universitet qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

36-modda. Jamoatchilik nazorati

Xodimning xulq-atvori ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida, mazkur Kodeksga rioya etmaganlik holatlari Universitet Xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti va Kasaba uyushmasi qo'mitasida ham muhokama qilinishi amaliyoti joriy etilishi mumkin.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

37-modda. Kodeksning kuchga kirishi hamda unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish

Mazkur qoidalar Universitet rektorining buyrug'i bilan amalga kiritiladi va unga o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Mazkur qoidalarni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Mazkur Kodeks talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.